
Shohimardonlik pensionerlar bilan uchrashuv tashkillandi

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona viloyati boshqarmasi vakillari Farg'ona tumani Shohimardon qishlog'ida aholi bilan uchrashuv o'tkazdi. Boshqarma vakillari muloqot davomida pensiya ta'minoti bilan bog'liq ko'plab savollarga batafsil javob berdilar. Barchamizga ma'lumki, Shohimardon anklav hudud hisoblanadi.

Shohimardonning turli hududlaridan yashovchi aholi, mahalla fuqarolar yig'ini ma'sul xodimlari tomonidan berilgan - "Chet elda yollangan holda ishlovchi shaxslarning mehnat faoliyati davri ham ish stajiga kiradimi?", "Yoshga doir pensiyaga chiqqandan so'ng ishlagan davri pensiya miqdorini qayta hisoblashda inobatga olinadimi?", "Etarlicha ish stajiga ega bo'lsada, pensiya miqdori kam belgilanishiga sabab nima?" kabi pensiya va nafaqa oluvchilarning ko'plab savollariga boshqarma vakillari javob berdi. Yig'ilganlarga pensiya ta'minotiga oid videolavhalar namoyish etildi. Uchrashuvda muammolar va fuqarolarni o'ylantirayotgan masalalar muhokama qilindi. Tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarining qiziqtirgan barcha savollarga javob oldilar, qo'shimcha o'rganish talab qiladigan murojaatlar bo'yicha Pensiya jamg'armasining ma'sul xodimlariga topshiriqlar berildi. Mana shunday ochiq muloqotlar belgilangan reja asosida viloyatning barcha tumanlarida o'tkazilm^oqda.

2018-09-10 16:53:00